

## Ozodbek Nazarbekov

### "Topilmas"

Visit "[Topilmas](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Dard ustimdan kular, darmon topilmas,  
Boshimda xavf yelar, qalqon topilmas. [2x]  
Ko'zlar seni izlar, yo'lingga boqib,  
Sevaman deb aytgani imkon topilmas. [2x]

Dard ustimdan kular, darmon topilmas,  
Boshimda xavf yelar, qalqon topilmas.

Bog'i Eramlardan kelganmisan yo,  
Xayollar suraman, bo'ladi ro'yo, [2x]  
Qachon yulduz bo'lib, socharsan ziyo,  
Suhbat aylagani bir on topilmas. [2x]

Dard ustimdan kular, darmon topilmas,  
Boshimda xavf yelar, qalqon topilmas.

Har ne boshga tushdi, shirin so'zladim,  
O'zim ham bilmadim, neni ko'zladim, [2x]  
Oyni ko'rolmagan kimdek bo'zladim,  
Sen-la birga bo'lgani zamon topilmas. [2x]

Dard ustimdan kular, darmon topilmas,  
Boshimda xavf yelar, qalqon topilmas.  
Ko'zlar seni izlar, yo'lingga boqib,  
Sevaman deb aytgani imkon topilmas. [2x]

Dard ustimdan kular, darmon topilmas,  
Boshimda xavf yelar, qalqon topilmas.

Visit [Ozodbek Nazarbekov](#) page on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com), to get more lyrics and videos.